
TOSHLOQ TUMANIDA PAXTA YIG'IM-TERIMI OLDDAN SEMINAR O'TKAZILDI

Toshloq tumanida paxta yig'im-terimi hamda ochiq maydonlarga va g'o'za qator oralariga g'alla ekishni o'z vaqtida va sifatli o'tkazishga bag'ishlangan seminar tuman hokimi Abduqahhor Djurabayev, sektor rahbarlari, paxta-to'qimachilik va g'allachilik klasterlari rahbarlari, fermerlar hamda daxldor mutasaddilar, nuroniylar ishtirok etdilar.

"Qumariq saxovati" MMTP hududidagi "Aminjon Buva MRM" fermer xo'jaligida o'tkazilgan seminar yerdagi maydonlarda g'o'za defoliatsiyalash tadbirlari, paxta-terim mavsumini uyushqoqlik bilan o'tkazish hamda 2025 hosili uchun don ekish mavsumini tizimli tashkil etish masalalariga e'tibor qaratildi.

Seminar davomida 3620 gektar g'o'za maydonlarida defoliatsiya tadbirlarini 1 sentyabr kundan 10 sentyabr kungacha qadar sifatli yakunlash, maydonlarda yetishtirilgan 17900 tonna paxta hosilini qisqa fursatlarda terib olish hamda 2025 yil hosili uchun 4800 gektar maydonlarga don ekish ishlarini maqbul muddatlarda sifatli yakunlash to'g'risida mas'ullarga topshiriq va ko'rsatmalar berildi.

Shuningdek, nuroniylar ezgu niyatlar bildirib, joriy yilgi paxta hosilini barakali bo'lishini tilab duoga qo'l ochdilar.

2024-08-23 18:58:50